



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA  
BOSHQARMASI


# JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-APREL



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2019- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, <i>mld. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Jizzax viloyati<sup>1)</sup></b>	<b>2 987,3</b>	<b>100,0</b>	<b>109,9</b>
Jizzax sh.	1 173,5	39,3	101,4
<i>tumanlar</i>			
Arnasoy	58,2	1,9	120,7
Baxmal	223,2	7,5	126,7
G'allaorol	259,9	8,7	117,5
Sharof Rashidov	404,4	13,5	112,5
Do'stlik	105,2	3,5	116,9
Zomin	247,9	8,3	112,3
Zarbdor	112,9	3,8	116,3
Zafarobod	53,9	1,8	119,9
Mirzacho'l	89,6	3,0	113,9
Paxtakor	100,4	3,4	120,2
Forish	134,3	4,5	119,0
Yangiobod	23,9	0,8	89,2

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 019,4** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,5 %** ni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

▶ Hajmi, ming so'mda — O'sish sur'ati, % da


## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 019,4</b>	<b>107,5</b>
Jizzax sh.	6 099,3	98,7
<i>tumanlar</i>		
Arnasoy	1 210,6	118,9
Baxmal	1 335,5	123,9
G'allaorol	1 418,0	115,1
Sharof Rashidov	1 703,6	109,6
Do'stlik	1 524,7	114,9
Zomin	1 410,1	109,7
Zarbdor	1 216,6	113,5
Zafarobod	1 021,0	117,4
Mirzacho'l	1 640,0	111,8
Paxtakor	1 263,4	117,5
Forish	1 384,6	117,1
Yangiobod	809,0	88,0

# Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2019-2023- yillar yanvar-aprel)



2019- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **916,2** mlrd. so'mga oshib, **1 698,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **56,9 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **17,9 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

**Jizzax viloyati – 1 698,6**

Jizzax sh. – 428,5	Do'stlik – 73,4
Sharof Rashidov – 324,2	Paxtakor – 71,1
G'allaorol – 189,3	Mirzacho'l – 51,4
Zomin – 170,1	Arnasoy – 38,8
Baxmal – 126,7	Zafarobod – 35,6
Forish – 94,8	Yangiobod – 19,9
Zarbdor – 74,8	

Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **36,5** foiz yoki **428,5** mlrd. so'm Jizzax shahriga to'g'ri keldi.







# Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 987,3</b>	<b>100,0</b>	<b>109,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	155,3	5,2	121,8
Moliyaviy xizmatlar	907,3	30,4	126,4
Transport xizmatlari	415,4	13,9	103,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	405,9	13,6	100,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	93,7	3,1	102,6
Savdo xizmatlari	857,3	28,7	106,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	50,3	1,7	100,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	124,4	4,1	95,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	51,5	1,7	85,1
Ijara xizmatlari	48,4	1,6	88,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	73,9	2,5	100,3
Shaxsiy xizmatlar	83,2	2,8	100,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,0	1,3	105,8
Boshqa xizmatlar	88,6	3,0	103,1

# Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-aprel)



2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **679,1** mlrd. so'mga oshib, **907,3** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **30,4 %** ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **126,4 %** ni tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'mda — O'sish sur'ati, % da

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **95,6 %** ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **53,7** foizni yoki **547,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan Baxmal tumanida yuqori o'sish sur'ati **287,0 %** ni tashkil etdi.





# Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel)

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>95,6</b>	<b>3,3</b>	<b>1,1</b>
Jizzax sh.	93,2	5,4	1,4
Arnasoy	99,6		0,4
Baxmal	99,3		0,7
G'allaorol	99,3		0,7
Sharof Rashidov	99,1		0,9
Do'stlik	99,1		0,9
Zomin	99,3		0,7
Zarbdor	99,3		0,7
Zafarobod	99,6		0,4
Mirzacho'l	99,0		1,0
Paxtakor	98,9		1,1
Forish	99,2		0,8
Yangiobod	89,1		10,9


## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)





## Transport xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi 415,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 13,9 % ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 452 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 3,6 % ini tashkil etdi. Ulardan 450 birlik (99,6 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.


### Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)



# Avtomobil transporti xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-aprel)



2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati **100,8 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,6 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **405,9 mlrd. soʻmga** yetdi.



## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yurilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,1 %**.


**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ushbu koʻrsatkich **44,9 %** ni tashkil etgan.



## Savdo xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-aprel)

**2019- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida savdo xizmatlari hajmi **441,3** mlrd. so'mga oshib, **857,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **106,3** % ga yetdi.



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



**2023- yilning 1- may** holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **43,9** % yoki **5 464** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8** % (**5 453** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



# Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **80,0 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari


Chakana savdo xizmatlari

Hududlar kesimida	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Jizzax viloyati	11,2	8,8	80,0
Jizzax sh.	12,2	18,5	69,3
Arnasoy	5,7	13,4	80,9
Baxmal	41,8	3,6	54,6
G'allaorol	4,0	2,2	93,8
Sharof Rashidov	7,4	8,1	84,5
Do'stlik	6,8	17,3	75,9
Zomin	4,6	7,8	87,6
Zarbdor	2,0	3,6	94,4
Zafarobod	4,7	4,3	91,0
Mirzacho'l	2,1	12,4	85,5
Paxtakor	6,1	4,8	89,1
Forish	3,6	2,2	94,2
Yangiobod	6,5	2,9	90,6



# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **155,3** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,8** % ni tashkil etdi.




**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **235** birlikka yetdi, shundan **218** birlik kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-aprel)







## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-aprel)


	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>155,3</b>	<b>100,0</b>	<b>121,8</b>
Jizzax sh.	24,1	15,5	115,2
Arnasoy	4,3	2,8	126,3
Baxmal	14,3	9,2	125,5
Gʻallaorol	16,2	10,4	125,3
Sharof Rashidov	21,1	13,6	123,7
Doʻstlik	6,1	3,9	125,5
Zomin	15,2	9,8	125,8
Zarbdor	8,1	5,2	126,2
Zafarobod	4,6	3,0	126,0
Mirzachoʻl	4,9	3,1	126,2
Paxtakor	7,4	4,8	124,8
Forish	26,5	17,0	115,1
Yangiobod	2,7	1,7	125,1

<sup>1</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2019- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan Jizzax shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **94,0** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **24,1** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **15,5 %** ni tashkil etdi.

Yangiobod viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **2,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-aprel)



**2023- yil yanvar-aprel** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **124,4** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **5,0** % ga pasayganligi qayd etildi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida ularning ulushi **76,5** % ni tashkil etdi.


“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-aprel)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, mlrd so'mda    ● O'sish sur'ati, % da

**2023- yil yanvar-aprel** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **51,5** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- may** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **343** birlikni tashkil etdi, shundan **260** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

Jizzax viloyati	51,5	Do'stlik	0,4
Jizzax sh.	30,4	Paxtakor	0,4
Zomin	11,3	Forish	0,3
Sharof Rashidov	3,4	Arnasoy	0,2
G'allaorol	1,8	Zarbdor	0,1
Mirzacho'l	1,4	Zafarobod	0,1
Yangiobod	0,9		
Baxmal	0,8		

# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-aprel)

2019- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 56,1 mlrd. so'mga oshib, 93,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- may** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 232** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 228** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-aprel)



**Yashash bo'yicha xizmatlar**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-aprel)



**2023- yilning yanvar-aprel** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **50,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** ni tashkil etgan.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

— Hajmi, mlrd. so'mda —●— O'sish sur'ati, % da

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi		(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)	
Jizzax viloyati	50,3	Do'stlik	2,3
Jizzax sh.	14,6	Forish	2,3
Sharof Rashidov	5,9	Paxtakor	2,1
G'allaorol	5,4	Mirzacho'l	1,6
Zomin	4,9	Zafarobod	0,9
Arnasoy	3,7	Yangiobod	0,8
Baxmal	3,4		
Zarbdor	2,4		

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



# Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-aprel)

**2019- yilning yanvar-apreliga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **21,3** mlrd. so'mga oshib, **48,4** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,6** % ni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.  
■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **67,8** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi Tel.: 72  222-79-76**